

KIMYO SANOATINI EKOLOGIK-INNOVATSION BARQAROR RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Adilova Marg‘uba Tursunalievna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Yashil iqtisodiyot” kafedrası dotsenti

ORCID: 0000-0001-8632-9613

E-mail: m.adilova@tsue.uz

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda kimyo sanoatini ekologik-innovatsion barqaror rivojlantirish metodologiyasi takomillashtirildi. Yashil kimyo tamoyillari, hayotiy sikl baholash va aylanma iqtisodiyot vositalari asosida integratsiyalashgan yondashuv ishlab chiqildi. Kimyo korxonalarining ekologik va iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Raqamli boshqaruv tizimlari, resurs samaradorligi va chiqindilarni kamaytirish natijalari baholandi. Tadqiqot natijasida ekologik xavfsizlikni kuchaytirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va sanoat raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Kalit so‘zlar: kimyo sanoati, yashil kimyo, ekologik innovatsiya, barqaror rivojlanish, aylanma iqtisodiyot, E-faktor, raqamli boshqaruv, resurs samaradorligi.

Аннотация

В исследовании была усовершенствована методология экологически-инновационного устойчивого развития химической промышленности. Разработан интегрированный подход на основе принципов зелёной химии, оценки жизненного цикла и инструментов циркулярной экономики. Проведен анализ экологических и экономических показателей химических предприятий. Оценены результаты внедрения цифровых систем управления, повышения ресурсной эффективности и сокращения отходов. По итогам исследования сформированы практические рекомендации, направленные на укрепление экологической безопасности, развитие инновационной деятельности и повышение конкурентоспособности химической отрасли.

Ключевые слова: химическая промышленность, зелёная химия, экологические инновации, устойчивое развитие, циркулярная экономика, E-фактор, цифровое управление, ресурсная эффективность.

Abstract

This study improved the methodology for environmentally innovative and sustainable development of the chemical industry. An integrated approach based on green chemistry principles, life-cycle assessment, and circular economy tools was developed. Environmental and economic indicators of chemical enterprises were analyzed. The results of digital management systems, resource efficiency improvements, and waste reduction measures were evaluated. The findings led to practical recommendations aimed at strengthening environmental safety, promoting innovation activities, and increasing the competitiveness and long-term sustainability of the chemical industry.

Keywords: chemical industry, green chemistry, eco-innovation, sustainable development, circular economy, E-factor, digital management, resource efficiency.

KIRISH

Kimyo sanoati korxonalarini bugun ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik talablar bilan uygʻunlashtirish vazifasini amaliy hal etmoqda. Yashil kimyo ushbu vazifani bajarishda aniq uslubiy asos beradi va u barqaror rivojlanishni taʼminlovchi vosita sifatida tan olingan [1]. Anastas va Warner ishlab chiqqan oʻn ikki tamoyil chiqindini manbada oldini olish, atom unumdorligini oshirish va xavfsiz erituvchilarni tanlashni amaliy koʻrsatma darajasiga koʻtaradi [2]. Jarayon darajasida ekologik yukni oʻlchashda E-faktor - chiqindi massasining mahsulot massasiga nisbati - eng sodda va keng qoʻllaniladigan metrika sifatida xizmat qiladi; uning qiymati nolga qancha yaqin boʻlsa, jarayon shunchalik toza hisoblanadi [3].

Sohaning iqtisodiy salohiyati ana shunday uslubiy oʻzgarishlarni amalga oshirish uchun yetarli zamin yaratadi. Yevropa kimyo sanoati 2024-yilda 635 mlrd yevro aylanmani va 1,2 mln ish oʻrnini taʼminladi, energiya samaradorligi esa 1990-yildan buyon 40 foizga yaxshilandi [4]. EU27 doirasida ilmiy-innovatsion xarajatlar 2024-yilda 10,4 mlrd yevroni tashkil etdi, soʻnggi oʻn yillikda global kapital investitsiya qariyb 58 foizga oshdi [5]. Mavjud investitsion oqimni ekologik-innovatsion maqsadlarga yoʻnaltirish metodologiyani aniq qaror qabul qilish vositasiga aylantirishni talab qiladi.

Milliy darajada ushbu jarayon aniq amaliy koʻrinishga ega. “Oʻz kimyosanoat” AJ maʼlumotlariga koʻra, 2025-yilda kimyo korxonalarini 21,4 trln soʻmlik tovar mahsuloti ishlab chiqardi, oʻsish surʼati 108,1 foizni tashkil etdi, eksport hajmi esa 659,8 mln AQSH dollarga yetib, mahsulot 55 ta davlatga yoʻnaltirildi [6]. Sohada moliyaviy va ishlab chiqarish koʻrsatkichlarini kuzatuvchi avtomatlashtirilgan tahlil markazlari, yagona raqamli platforma hamda bir tonna mahsulotga sarflanayotgan energiya resurslarini avtomatik hisoblash tizimi ishga tushirildi [6]. Bunday amaliy zamin ekologik-innovatsion metodologiyani joriy etish uchun real imkoniyat yaratadi.

Korxonalar liniyaviy ishlab chiqarishdan aylanma modelga oʻtishda texnologik, iqtisodiy va tashkiliy toʻsiqlarga duch keladi, innovatsiya va malakali kadrlar esa bu oʻtishning kalit omillari sanaladi [7]. Metodologiyani takomillashtirish ushbu toʻsiqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etadigan, oʻlchanadigan va takrorlanadigan uslubiy ketma-ketlikni taqozo qiladi. Maqolada ana shunday integratsiyalashgan metodologiyani ishlab chiqishni va uning korxonalar hamda milliy soha darajasidagi amaliy qoʻllanilishini asoslashni maqsad qilingan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil kimyo va barqaror rivojlanish oʻrtasidagi bogʻliqlik ilmiy adabiyotda mustahkam oʻrin egalladi. Yashil kimyo barqaror jamiyat qurishning ilmiy-texnologik quroli sifatida talqin etildi va uning rivoji iqtisodiy manfaat bilan bevosita bogʻlandi [1]. Kimyo sektorining liniyaviydan aylanma iqtisodiyotga oʻtishi innovatsiya, qayta tiklanuvchi xomashyo va malakali ishchi kuchi orqali amalga oshishi koʻrsatib berildi [7].

Yashil kimyo tamoyillarining aylanma iqtisodiyot tizimida joriy etilishi qayta tiklanuvchi xomashyo va energiyadan oqilona foydalanish orqali bir necha tamoyilni bir vaqtning o'zida qondirishi mumkinligi asoslandi; bunda 9R modeli - rad etish, qayta o'ylash, kamaytirish, qayta ishlatish, ta'mirlash, tiklash, qayta tayyorlash, qayta yo'naltirish va qayta ishlash - markaziy o'rin tutdi [8]. Sanoat kimyosi va ekologik muhandislikda aylanma iqtisodiyotni ilgari surishda yashil sintez, raqamli barqarorlik va hayotiy sikl bo'yicha baholash barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashtirildi[9].

Barqaror kimyo yashil, aylanma va xavfsiz loyihalash o'lchovlarining yaxlit baholash jarayoni sifatida tavsiflandi; bunda xavf identifikatsiyasidan boshlanib, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlarning yaxlit baholanishigacha bo'lgan bosqichli yondashuv ilgari surildi[10]. Siyosiy-uslubiy darajada Yevropa Ittifoqining barqarorlik uchun kimyoviy moddalar strategiyasi sakson nafardan ortiq chorani belgiladi, xavfsiz va barqaror loyihalash ramkasini hamda yagona baholash mexanizmini ilgari surdi[11]. Ushbu ramkani amaliyotga tatbiq etish bo'yicha o'tkazilgan tahliliy ish loyihalash va baholashning ikki bosqichli iterativ tuzilmasini ajratib ko'rsatdi va operatsionallashtirishning aniqlangan qiyinchiliklarini tizimlashtirdi[12].

Adabiyot sharhi yaxlit metodologiyaga ehtiyojni - alohida tamoyillar, metrikalar va siyosiy ramkalarni korxonada birlashtiradigan yondashuvni - yetarlicha asoslaydi. Milliy darajadagi rasmiy ochiq ma'lumotlar esa bunday yondashuvni o'lchanadigan ko'rsatkichlar bilan to'ldirish imkonini beradi va nazariy modelni amaliy negizga bog'laydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot konseptual-analitik yondashuvga tayandi: yashil kimyo metrikalari, hayotiy sikl bo'yicha baholash va aylanma iqtisodiyot vositalari yagona uslubiy tizimga jamlandi. Ma'lumotlar manbai sifatida xalqaro ochiq nashrlar va "O'z kimyosanoat" AJning rasmiy ochiq hisobotlari tanlandi, ko'rsatkichlar bir nechta mustaqil manbadan qiyoslab tekshirildi. Taklif etilayotgan metodologiya korxonaning ekologik-innovatsion holatini bosqichma-bosqich baholaydigan va takomillashtiradigan oltita o'zaro bog'liq bosqichdan tashkil topdi.

Birinchi bosqich - qamrov va maqsadni belgilash. Tizim chegaralari, loyihalash maqsadlari va qaror qabul qilish mezonlari aniqlanadi; qiymat zanjiri bo'ylab manfaatdor tomonlar jalb etiladi. Ushbu bosqich xavfsiz va barqaror loyihalash ramkasining boshlang'ich tahlil qismiga mos keladi[10].

Ikkinchi bosqich - yashil kimyo tamoyillari asosida loyihalash. Chiqindini manbada oldini olish, atom unumdorligi, kam zaharli erituvchilar va qayta tiklanuvchi xomashyodan foydalanish texnologik yechimga singdiriladi[2].

Uchinchi bosqich - xavfsizlik va barqarorlikni baholash. Mahsulot va jarayon hayotiy tsikl bo'yicha baholash hamda xavfsiz va barqaror loyihalash mezonlari orqali ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy o'lchovlarda tekshiriladi[11].

To'rtinchi bosqich - metrikalar bilan o'lchash. Jarayon E-omil, jarayon massa intensivligi va atom unumdorligi kabi miqdoriy ko'rsatkichlar yordamida baholanadi;

bir tonna mahsulotga energiya resurslari sarfini avtomatik hisoblash tizimi bu o‘lchovni amaliyotda mustahkamlaydi[3].

Beshinchi bosqich - aylanma yopilish. Yon mahsulotlar va chiqindilar ikkilamchi xomashyoga aylantiriladi, 9R mantig‘i bo‘yicha resurs oqimi yopiq tsiklga keltiriladi [8].

Oltinchi bosqich - monitoring va takomillashtirish. Olingan natijalar dastlabki maqsadlar bilan qiyoslanadi va metodologiya yangi ma’lumotlar asosida iterativ tarzda yangilanadi; baholashning bosqichli va takrorlanadigan tabiati uning amaliy barqarorligini ta’minlaydi[12].

Metodologiyaning kuchli tomoni uning modulligida namoyon bo‘ldi: har bir bosqich mustaqil o‘lchanadi, biroq umumiy tizim doirasida o‘zaro bog‘lanadi. Bunday tuzilma korxonaga cheklangan resurslar sharoitida ham eng ta’sirchan bosqichlardan boshlash va natijani izchil kengaytirish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Metodologiyaning amaliy asosliligini baholash uchun ochiq manbalardagi tasdiqlangan ko‘rsatkichlar jamlandi. 1-jadval kimyo sanoatining ekologik-innovatsion o‘tishini tavsiflovchi tekshirilgan miqdoriy ko‘rsatkichlarni, ularning qiymatlari va manbalari bilan birga, tartibga soldi.

1-jadval

Kimyo sanoatining ekologik-innovatsion o‘tishini tavsiflovchi tasdiqlangan ko‘rsatkichlar¹

Ko‘rsatkich	Qiymat	Manba
Yevropa kimyo sanoati aylanmasi 2024-yil, mlrd yevro	635	[4]
Sohadagi bandlik, mln kishi	1,2	
Energiya samaradorligining o‘shishi 1990-2024 yillar, foizda	40	
EU27 kapital xarajatlari 2024-yil, mlrd yevro	28,4	[5]
EU27 ilmiy-innovatsion (R&I) xarajatlari 2024-yil, mlrd yevro	10,4	
Global kapital investitsiyaning o‘shishi 2014-2024 yillar, foizda	58	
Energiya intensivligini kamaytirish imkoniyati (18 ta eng energiya talab mahsulot, 2050-yilga), 2010-yilga nisbatan, foizda	20-40	[13]
Yillik energiya tejash salohiyati 2050-yilga prognoz, EJ	13	
Yillik CO ₂ -ekvivalent emissiyani qisqartirish 2050-yilga prognoz, Mt	1000	

Global ko‘rsatkichlar iqtisodiy salohiyat va ekologik samaradorlik bir-birini istisno etmasligini namoyish etdi. Energiya samaradorligining 1990-yildan buyon 40 foizga oshishi yuqori aylanma darajasi bilan birga saqlanib, sohaning texnologik yangilanish hisobiga ekologik yukni kamaytira olishini tasdiqladi [4]. Innovatsion xarajatlarning barqaror o‘shishi metodologik takomillashtirish uchun moliyaviy zaminni belgiladi [5].

¹ Manba: muallif tomonidan [4], [5] va [13] asosida tuzildi.

Milliy darajadagi rasmiy ochiq ma'lumotlar metodologiyaning real natijalarini aniq raqamlarda ko'rsatdi. 2-jadval "O'z kimyosanoat" AJ faoliyatining uch yillik dinamikasini umumlashtirdi.

2-jadval

"O'z kimyosanoat" AJ faoliyatining tasdiqlangan natijalari (2023-2025)

Yil	Tovar mahsuloti (trln so'm)	Mineral o'g'itlar (ming tonna, sof)	Manba
2023	15,7	1 410,2	[14]
2024	17,7	1 466,1	[15]
2025	21,4	1 453,8	[6]

2-jadval ko'rsatkichlari milliy sanoatning izchil o'sish trayektoriyasini aks ettirdi: tovar mahsuloti 2023-yildagi 15,7 trln so'mdan 2025-yilda 21,4 trln so'mga yetdi, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish esa barqaror yuqori darajada saqlandi. 2025-yilda eksport hajmi 659,8 mln AQSH dollarni tashkil etib, mahsulot geografiyasi 55 ta davlatga kengaydi [6]. Bu dinamika ekologik-innovatsion yo'nalishning iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilmasligini, aksincha uni mustahkamlashini amalda tasdiqladi.

Atrof-muhitni asrash choralari metodologiyaning beshinchi bosqichi - aylanma yopilish bilan bevosita uyg'unlashdi. 2024-yilda korxonalarda 34,3 mlrd so'mlik chora-tadbirlar amalga oshirilib, atmosferaga tashlanmalar 15,6 ming tonnaga (shundan 1,7 ming tonna zaharli-kimyoviy chiqindi) qisqartirildi, 787,6 mln kub metr artezian suvi tejaldi va 31,7 ming tonna chiqindi utilizatsiya qilindi [15]. 2025-yilda esa 91 ta chora-tadbir doirasida chang-gaz tozalash uskunalarning samaradorligi 95 foizdan oshirildi va sanitar himoya hududlariga 32 ta ekopost o'rnatildi [6]. Chiqindi va emissiyalarning kamaytirilishi E-faktorni izchil pasaytirishning amaliy ifodasi sifatida talqin etilishi mumkin [3].

Raqamli yangilanish metodologiyaning to'rtinchi bosqichi - metrikalar bilan o'lchashga to'g'ridan-to'g'ri xizmat qildi. Yagona raqamli platforma, avtomatlashtirilgan tahlil markazlari hamda bir tonna mahsulotga energiya sarfini avtomatik hisoblash tizimi monitoringni real vaqt rejimiga o'tkazdi va sun'iy intellekt modellari shakllantirildi [6]. Korporativ boshqaruv darajasida barqaror rivojlanish hisoboti va ESG strategiyasi xalqaro auditorlik tashkiloti ishtirokida ishlab chiqildi, soha BB- darajadagi xalqaro kredit reytingiga ega bo'ldi va ESG reytingini qo'lga kiritish ishlari nufuzli baholash kompaniyasi bilan olib borildi [15]. Xalqaro kredit reytingi sohada ilk bor 2023-yilda qo'lga kiritilgan edi va bu holat keyingi yillardagi barqaror o'sishning institutsional zaminini yaratdi [14].

Texnologik istiqbol global salohiyatni miqdoriy o'lchamda ochib berdi. Yangi katalitik jarayonlar, biomassadan xomashyo sifatida foydalanish va qayta tiklanuvchi energiyadan vodorod olish eng energiya talab qiluvchi o'n sakkizta kimyoviy mahsulot bo'yicha energiya intensivligini 2050-yilga borib 2010-yil darajasiga nisbatan 20-40 foizga kamaytirishi, yiliga 13 EJ energiya tejashi va 1000 Mt CO₂-ekvivalent emissiyani qisqartirishi mumkinligi hisoblab chiqildi [13]. Milliy ko'rsatkichlar ana shu global salohiyatni amaliy bosqichlarga ulash mumkinligini ko'rsatdi: metodologiyaning uch tarkibiy qismi - yashil kimyo metrikalari, aylanma iqtisodiyot

vositalari va raqamli innovatsion boshqaruv - uyg'unlashtirilganda resurs unumdorligi izchil oshdi va sanoat raqobatbardoshligi mustahkamlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot kimyo sanoatini ekologik-innovatsion barqaror rivojlantirishning yaxlit metodologiyasini ishlab chiqdi va uni tasdiqlangan ko'rsatkichlar asosida asosladi. Yashil kimyoning o'n ikki tamoyili, hayotiy sikl baholash va xavfsiz hamda barqaror loyihalash ramkasi oltita bosqichli, modulli va iterativ tizimga birlashtirildi. Olingan natijalar ekologik samaradorlik va iqtisodiy quvvat bir-birini to'ldirishini, metrikalar bilan o'lchanadigan yondashuv esa yaxshilanishni aniq qayd etishini ko'rsatdi.

Amaliy tatbiq uchun quyidagi takliflar shakllantirildi. Birinchidan, korxonalariga metodologiyani eng ta'sirchan bosqichlardan - metrikalar bilan o'lchash va aylanma yopilishdan - boshlab joriy etish tavsiya etildi, chunki aynan shu bosqichlar yiriklashgan miqdoriy natija beradi [15]. Ikkinchidan, E-faktor va jarayon massa intensivligi kabi metrikalarni standart hisobot tizimiga kiritish chiqindi oqimini izchil kuzatish imkonini beradi [3]. Uchinchidan, mavjud innovatsion va kapital xarajatlarni ekologik-innovatsion loyihalarga yo'naltirish o'tishni tezlashtiradi [5].

To'rtinchidan, ta'lim, tartibga solish va iqtisodiy rag'batlantirish choralarining muvofiqlashtirilishi metodologiyaning keng joriy etilishini qo'llab-quvvatlaydi [14]. Beshinchidan, xalqaro uslubiy ramkalarni milliy sanoat sharoitiga moslashtirish - qiymat zanjiri va xomashyo bazasini hisobga olgan holda - metodologiyaning samaradorligini oshiradi [11]. Ushbu yo'nalishlar kimyo sanoatini barqaror, raqobatbardosh va resurs jihatidan unumdor asosga o'tkazishning ijobiy istiqbolini ochib beradi va keyingi empirik tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Song J., Han B. Green chemistry: a tool for the sustainable development of the chemical industry. National Science Review, 2015, 2(3), 255-256. <https://academic.oup.com/nsr/article/2/3/255/1426609>
2. American Chemical Society. 12 Principles of Green Chemistry (Anastas P.T., Warner J.C.). <https://www.acs.org/green-chemistry-sustainability/principles/12-principles-of-green-chemistry.html>
3. Green Chemistry Metrics with Special Reference to Green Analytical Chemistry. PMC, 2018. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC6272361/>
4. Cefic. 2025 Facts and Figures of the European Chemical Industry. <https://cefic.org/facts-and-figures-of-the-european-chemical-industry/>
5. Cefic. Capital & R&I Spending - Facts and Figures of the European Chemical Industry. <https://cefic.org/facts-and-figures-of-the-european-chemical-industry/capital-ri-spending/>
6. "Ўзкимёсаноат" АЖ. 2025 йилда амалга оширилган ишлар тўғрисида ҳисобот (очик маълумотлар). <https://uzkimyosanoat.uz/uploads/opendata/2025/04/od-001-oz.pdf>

7. The Chemical sector in transition: Technological developments and green skills towards circularity and decarbonisation. ScienceDirect, 2024. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S245222362400097X>
8. Implementation of green chemistry principles in circular economy system towards sustainable development goals: Challenges and perspectives. Science of the Total Environment, 2020. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0048969720305088>
9. Advancing circular economy in industrial chemistry and environmental engineering: Principles, alignment with UN SDGs, and pathways to implementation. European Journal of Chemistry, 2023, 14(3). <https://www.eurjchem.com/index.php/eurjchem/article/view/2452>
10. Sustainable chemistry: Green, circular, and safe-by-design. ScienceDirect, 2024. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2590332224001969>
11. European Commission. Implementation of the Chemicals Strategy for Sustainability. https://environment.ec.europa.eu/strategy/chemicals-strategy/implementation_en
12. Operationalization of the safe and sustainable by design framework for chemicals and materials: challenges and proposed actions. PMC, 2025. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC11844345/>
13. First Steps Toward Sustainable Circular Uses of Chemicals: Advancing the Assessment and Management Paradigm. ACS Sustainable Chemistry & Engineering, 2021. <https://pubs.acs.org/doi/10.1021/acssuschemeng.1c00243>
14. “Ўзкимёсаноат” АЖ. 2023 йилда амалга оширилган ишлар тўғрисида ҳисобот (очик маълумотлар). <https://uzkimyosanoat.uz/uploads/opendata/2024/01/od-001-oz.pdf>
15. “Ўзкимёсаноат” АЖ. 2024 йилда амалга оширилган ишлар тўғрисида ҳисобот (очик маълумотлар). <https://uzkimyosanoat.uz/uploads/opendata/2025/01/od-001-oz.pdf>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, iyun, 6-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**